

“2026- yilning 1-choragi yakunlari bo'yicha Farg‘ona viloyatining
makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari haqida Axborot

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda statistika sohasini yangi bosqichga ko‘tarish va tubdan isloh qilish, tizimga ilg‘or texnologiyalarni keng joriy qilish orqali rasmiy statistikaning sifati va unga bo‘lgan ishonchni yanada oshirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Ayniqsa, “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonun va statistika sohasini rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiyaning qabul qilinishi sohadagi tizimli yangilanishlarni yanada samarali amalga oshirish imkonini yaratdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi PF-27-son farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-75-sonli qarori qabul qilindi. Unda milliy statistika tizimining huquqiy va tashkiliy asoslari hamda infratuzilmasini takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalariga katta e‘tibor qaratilgan. 2026- yilning yanvar-mart oylarida Farg‘ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga doir statistik ma‘lumotlar etib, Farg‘ona viloyatining doimiy aholisi soni 2026- yilning 1- aprel holatiga 4 239 444 kishini tashkil etib, 2025-yilga nisbatan 1,9 % ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 140,1 ming kishini, qishloq aholisi soni 2 099,3 ming kishini tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-mart oylarida Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keying o‘rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarida 24 361,9 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 10,4 %ga o‘sd. YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 107,8 %ni tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 5,4 %ga yetdi. 2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonolari tomonidan 13 763,7 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2025-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,0 % ni tashkil etdi. 2026-yilning yanvar – mart oyida, Farg‘ona viloyatida jami 4 699,6 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2025- yilning yanvar- mart oyiga nisbatan 125,5%ni tashkil etdi. Hisobot davrida 11,9 trln so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. 2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 10 066,9 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 118,5 %ga yetdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 19 803,0 mlrd so‘mni, hajmning o‘shish sur‘ati – 116,3 % ni tashkil qilgan. 2026–yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot xizmat)larining umumiy hajmi 5 188,2 mlrd so‘mni yoki 2025–yilning mos davriga nisbatan 104,4 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 5 043,1 mlrd so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 18,8 mlrd so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 15,8 mlrd so‘mni tashkil qildi. 2026- yil yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 612,4 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 110,5 mln AQSH dollariga yoki 22,0 %ga kamaydi.